

SHAFFOF BREKETLAR VA ALIGNERLARNING AFZALLILKLARI VA KAMCHILIKLARI

Alfraganus Universiteti Tibbiyot fakulteti
Somatologiya yo'nalishi 3- kurs
talabasi O'ktamova Shaxnozabonu

Annotatsiya; Mazkur maqolada ortodontik davolashning zamonaviy usullari — shaffof breketlar va alignerlarning qo'llanilishi, ularning klinik samaradorligi, estetik jihatlari hamda afzallik va kamchiliklari tahlil qilingan. Tadqiqotlarda ushbu apparatlarning bemor motivatsiyasi, psixologik qoniqishi va tish-jag' tizimidagi o'zgarishlarga ta'siri keng yoritilgan. Maqola stomatologiya sohasidagi bakalavr va doktorant darajasidagi mutaxassislar uchun ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: ortodontiya, shaffof breket, aligner, estetik stomatologiya, tish-jag' anomaliyasi, davolash samaradorligi.

So'nggi yillarda ortodontik davolash nafaqat tish-jag' tizimidagi funksional muammolarni bartaraf etishga, balki estetik ko'rinishni yaxshilashga ham qaratilmoqda. An'anaviy metall breketlar samarali bo'lsa-da, ularning ko'rinishi ko'plab bemorlarni estetik jihatdan qoniqtirmaydi. Shu sababli shaffof breketlar va alignerlar keng qo'llanilmoqda. Ular tashqi tomondan deyarli sezilmasligi, gigiyenik qulayligi bilan farqlanadi. Shaffof breketlar asosan safirdan, keramikadan yoki polikarbonatdan tayyorlanadi. Ularning asosiy afzalligi — ko'rinasligi va bemorning ijtimoiy hayotida noqulaylik tug'dirmasligidir. Afzalliklari: Estetik jihatdan deyarli ko'rinxaydi. Mustahkamligi yuqori (ayniqsa, safirli breketlarda). Har qanday tish pozitsiyasini tuzatishda samarali. Kamchiliklari: Metall breketlarga nisbatan qimmatroq. Ba'zan metall breketlarga qaraganda davolash jarayoni sekinroq kechadi. Sinuvchanlik yuqori bo'lishi mumkin (keramika holatida). Alignerlar — maxsus shaffof plastinkalar bo'lib, 3D texnologiya yordamida individual ravishda tayyorlanadi. Ular bemorning tishlariga mukammal mos tushadi va bosqichma-bosqich o'zgarishlar kiritadi.

Afzalliklari: Tashqi tomondan mutlaqo sezilmaydi. Oson yechib-taqiladi, bemor gigiyenasini oson saqlaydi. Ovqatlanishda, sportda, ijtimoiy hayotda qulay. Allergiya chaqirish xavfi juda past.

Kamchiliklari: Og‘ir va murakkab tish-jag‘ anomaliyalarida samarasi cheklangan. Davolash samaradorligi bemorning intizomiga bog‘liq (alignerni kuniga 20–22 soat taqish shart). Narxi an’anaviy davolash usullaridan yuqori. Shaffof breket aligner estetika ko‘rinishi minimal mutlaqo ko‘rinmaydi, gigiyena tishlarni tozalashda qiyinroq oson yechib qo‘yish mumkin . Samaradorlik har xil anomaliyalar uchun samarali asosan yengil va o‘rta holatlar uchun narx o‘rtacha, yuqori, juda yuqori. Bemorga qulayligi doimiy taqiladi, istalgan vaqtida yechish mumkin Shaffof breketlar va alignerlar ortodontik davolashni bemorlar uchun qulayroq, estetik jihatdan maqbulroq qildi. Ayniqsa, yoshlar va katta yoshdagi bemorlar orasida ularga talab oshmoqda. Shu bilan birga, davolash usulini tanlashda bemorning individual holati, tish-jag‘ anomaliyasining darajasi, moliyaviy imkoniyatlari va psixologik omillari inobatga olinishi lozim.

Xulosa.

Shaffof breketlar va alignerlar ortodontiya sohasida estetik va funksional imkoniyatlarni kengaytirdi. Ularning har ikkisi ham o‘ziga xos afzallik va cheklowlarga ega. Klinik amaliyotda stomatolog har bir bemor uchun optimal variantni tanlashda ilmiy asoslangan yondashuvdan foydalanishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar;

1. Proffit W.R., Fields H.W., Sarver D.M. Contemporary Orthodontics. – Elsevier, 2018.
2. Keim R.G. et al. Esthetics and efficiency in orthodontics: clear aligners and ceramic brackets. – Journal of Clinical Orthodontics, 2019.
3. Sheridan J.J. Clear aligner therapy: evolution of treatment and clinical results. – American Journal of Orthodontics, 2020.
4. Graber T.M., Vanarsdall R.L., Vig K.W.L. Orthodontics: Current Principles and Techniques. – Elsevier, 2017.